

O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY MUSTAQILLIK

Abdinazarov Ramazon Ilhom o‘g‘li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 1-kurs talabasi

Boirov Turg‘unboy Nurali o‘g‘li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 1-kurs talabasi

Qurbonov Akobir Begali o‘g‘li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Vatanimizning mustaqillikka erishguncha va erishdandan so‘ng ilgari yurgan yo‘llari haqida fikr yuritimiz. Avvalo, birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimovning milliy iqtisodiyotimizni yanada barqarorlashuvidagi hissasi va qaramlik davridan so‘ng mamlakatimizning erishgan yutuqlari haqida faktlar keltiramiz. Mustaqillikdan keyingi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar buning yaqqol dalili hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: totalitar buyruqbozlik, repatriatsiya, iqtisodiy mustaqillik, YIM, tashqi savdo aylanmasi, iqtisodiy avtarkizm.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng uning iqtisodiyotida ham muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi. Buning negizini birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ilgari surgan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning 5 ta tamoyili tashkil etdi. O‘zbekiston o‘zining o‘ziga xos madaniy, tarixiy, iqtisodiy va tabiiy xususiyatlarini hamda bu yo‘ldagi jahon tajribasini hisobga olgan holda revalutsion to‘ntarishlarsiz, ijtimoiy to‘qnashuvlarsiz, ijtimoiy himoyani kuchaytirgan holda uni asta sekinlik, lekin qat‘iylik bilan bosqichma- bosqich rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o‘tishdan iborat yo‘lni tanladi.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi ana shu olamshumul jarayon tarkibida yuz beradi. ”Xalqlarning ozodlik, mustaqillik, baxt-saodatga azaliy intilishi, o‘z taqdirini o‘zi belgilashga azmu qarorni hayotga chuqur o‘zgarishlarni harakatga keltiruvchi kuchdir”,- degan edi Islom Karimov. XX asr 90-yillarining boshlariga kelib O‘zbekistonda xalqning ana shu azaliy orzusini amalga oshirish kun tartibidagi bosh masala bo‘lib qoldi. Mamlakatda shunday vaziyat vujudga keldiki, bir tomondan: „Zo‘ravonlikka asoslangan, ma‘muriy buyruqbozlikka xos bo‘lgan markazlashgan davlat saqlanib qoldimi yoki demokratik jarayonlar chuqurlashishi evaziga ittifoqdosh respublikalar suvereniteti ta‘minlanadimi?”- degan savol dolzarb bo‘lib qoldi. Ikkinchi tomondan, o‘sha davrdagi vaziyatni to‘g‘ri baholay olmadi, milliy respublikalarda mustaqillikka erishishga intilishning tobora kuchayib borayotganining oldini ololmay qoldi. O‘zbekistonning mustaqillik uchun xarakterlik SSSR Oliy Soveti ham SSSR Hukumati ham inqiroz holatdan chiqishning yo‘lini topa olmay qoldi. Xullas, 90-yillarining boshlariga kelganda markaz va ittifoqdosh jumhuriyatlar o‘rtasidagi munosabatlar keskinlashib, markaziy hokimiyatning obro‘yi pasayib ketdi. Siyosiy, iqtisodiy va xo‘jalik hayoti boshqarilmay qoldi. Oqibatda turmushning



barcha sohalaridagi salbiy ahvoldan xalqning kun sayin noroziligi ortib, turmush darajasi yomonlasha boshladi. Ishlab chiqarish va mehnat intizomi izdan chiqdi. Bu hol tabiiy ravishda xalqning ko'zini ochdilo, endi u eskicha buyruqbozlik usulini qabul qila olmay qoldi.

Qisqa qilib aytganda ,shu vaqtga kelib respublikalar suverenitetini va inson huquqlarini poymol qilgan totalitar buyruqbozlik boshqaruvining istiqbolsiz ekanligini hayotning o'zi ko'rsata boshladi. Buni birgina sobiq SSSRda xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazish hamda Yangi Ittifoq Shartnomasi tayyorlash borasidagi natijasiz qadamlarda ham ko'rsa bo'ladi. Shuni aytish kerakki, sobiq Ittifoqda xalq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tkazish masalasi 1987-yili xalq deputatlari II syezdi qarori va iqtisodiyotni sog'lomlashtirishga qaratilgan Hukumat Dasturida tilga olingan, u 1990-yil may oyida Oliy Sovet III sessiyasida muhokama qilingan edi. Xalq deputatlari Hukumat Dasturini muhokama qilar ekanlar, bozor iqtisodiyotiga o'tish obyektiv zaruriyat, bundan boshqa yo'l yo'q ,degan xulosaga keldilar. SSSR Oliy Soveti III sessiyasining “Boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o'tish haqida”gi qarorida bozor iqtisodiyotiga o'tish iqtisodiy islohotlarning asosiy mazmunini tashkil qiladi, deb qayd etildi. Shu bois bu boradagi Hukumat konsepsiyasini deputatlar fikr mulohazalari asosida qayta ishlash va 1990-yil 1-sentabriga tayyorlash belgilandi.

SSSR Rahbariyatida shu yo'nalishdagi amaliy ishlar qizg'in tus oldi. 1990-yil 25-iyunda SSSR Prezidentlik Kengashida Bosh Ministrning mamlakatni bozor iqtisodiyotiga o'tkazish yuzasidan qo'shimcha choralar haqidagi axborot tinglandi. 1990-yil 27-iyuli va 30-avgustida SSSR Prezidentining olimlar, mutaxassislar, ommaviy axborot vositalari vakillari bilan iqtisodiy islohotlar mavzuyida uchrashuvi bo'ldi.

1990-yil sentabr boshlarida SSSR Oliy Kengashi IV sessiyasida N.Rijkov “Boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o'tishga tayyorgarlik va mamlakat xalq xo'jaligida barqarorlikni vujudga keltirish haqida” ma'ruza qildi. Unda deputatlarning avvalgi fikrlari inobatga olingan variant ishlab chiqilgani aytilsada, sessiya Hukumat Dasturini sobiq Ittifoqni saqlab qolishni, shuningdek iqtisodiyotni sotsialistik yo'ldan rivojlantirishni ko'zda tutar edi.

1990-yil 11-sentabrda RSFSR Oliy Soveti II sessiyasi S.Shatalinning “500 kun” Programmasini qabul qildi. Unda quyidagi masalalar ko'tarilgan edi:

„Fuqorolarni mulkka egalik huquqini, iqtisodiy mustaqillikni, erkin iste'mol bozori va unda erkin narx; ittifoqdosh respublikalarning mutloq suvereniteti; aholi turmush darajasini pasaytirmaslikni ko'zda tutar edi”.

Iqtisodiy mustaqillik milliy iqtisodiyotning chet davlatlarga bog'liqligini kamaytirish va milliy manfaatlariga xizmat qilish uchun shart-sharoitlarni ta'minlanishi. Davlat mustaqilligining moddiy tayanchi, uni saqlab qolish va mustahkamlash sharti hisoblanadi, chunki iqtisodiy jihatdan ta'minlanmagan milliy mustaqillik o'zini himoya qila olmaydi, yashovchanlikdan mahrum bo'ladi. Jahon mamlakatlari taraqqiyoti tajribalari asosida iqtisodiy mustaqillikning o'zaro uzviy bog'langan eng muhim me'zonlari va



ko'rsatkichlari aniqlangan. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin. Milliy mulkning qaror topishi — muayyan mamlakatning moddiy va ma'naviy boyliklari shu mamlakatdagi turli mulk sohiblari egaligida bo'lishi, ularning bu mulkka mustaqil egalik qilish, ulardan foydalanish va erkin, chet el tazyiqsiz tasarruf etish huquqi ta'minlanishi kerak; milliy korxonalar va tashkilotlarning mamlakat iqtisodiyotidagi salmog'i shu mamlakatdagi chet el mulki salmog'idan katta bo'lishi lozim; Milliy manfaatlarining ustuvorligi — mamlakat iqtisodiyoti milliy manfaatga xizmat qilishi, yaratilgan daromadlar mamlakatda qolishi, uning katta qismi chet elga olib chiqib ketilmasligi (repatriatsiya), aksincha, iqtisodiyotning milliy subyektlari qo'lida qolishi, ishlab chiqarish natijalari mamlakat aholisi farovonligiga xizmat qilishi zarur. Ishlab chiqarish tuzilmasi milliy doiradagi takror ishlab chiqarishni ta'minlay olishi kerak. Iqtisodiyotning ochiqligi — iqtisodiy mustaqillik iqtisodiy avtarkizm (biqirlilik) bilan sig'ishmaydi. Iqtisodiy mustaqillik mamlakat iqtisodiyotining chet el tovarlari, kapitali, ish kuchi migratsiyasi uchun muayyan darajada ochiq bo'lishini taqozo etadi. Iqtisodiy mustaqillik mamlakat chet el bilan iqtisodiy aloqalarini o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda va erkin yuritadi. Iqtisodiy taraqqiyot yo'lini mustaqil tanlash — har bir mamlakat o'z kelajagini o'z imkoniyatlari va milliy xususiyatlariga qarab belgilaydi va unga erishish vositalarini erkin tanlaydi. Taraqqiyot modellari xilma-xil, lekin har bir mamlakat sharoitida o'xshashlik bo'lgan sharoitlarda modellar umumiy bo'lishi mumkin, ularning har birida o'ziga xos tomonlari albatta mavjud bo'ladi va uni amalga oshirish har bir mamlakatning o'z kuchi va imkoniyatiga tayanadi. Milliy investitsiyalarning ustuvorligi — iqtisodiyot rivojiga qo'yiladigan investitsiyalarning asosiy qismi mamlakatning o'ziga tegishli bo'lishi zarur. Mustaqil mamlakat o'z investitsiya resurslarini o'z iqtisodiyotining rivojiga sarflaydi, ammo xorij investitsiyalaridan ham ma'lum darajada foydalanadi. Xorij kapitali ustidan samarali nazorat — iqtisodiy mustaqillik milliy iqtisodiyotning xorij kapitali uchun ochiq bo'lishini inkor etmaydi, lekin bu kapital faoliyati milliy manfaatlariga putur yetkazmasligi talab qilinadi. Bunga xorij kapitali ustidan davlat va jamoatchilik nazoratini o'rnatish orqali erishiladi. Natijada xorij kapitali tomonidan milliy tabiiy boyliklarni talon-taroj qilinishiga, ekologiyaga zarar yetkazishga, ish o'rinlarini qisqartirishga, milliy kapitalni siqib qo'yishga yo'l berilmaydi. Milliy davlat chegaralarining mavjudligi va ularning daxlsizligi — milliy iqtisodiyotda chegaralarning mavjudligi uni himoya qilish vositalarini yaratishni ham bildiradi. Bular orasida mamlakat iqtisodiyotini chet el tajovuzidan himoya qilishda milliy valyuta va bojxona xizmati eng muhim o'rinda turadi. Milliy pul birligi mamlakatdagi yagona to'lov vositasi hisoblanadi, tovar va xizmatlarni faqat shu pulga sotib olish bilan mamlakat tovarlarining chetga tartibsiz chiqib ketishiga yo'l berilmaydi; bojxona to'lovlari, litsenziyalar va kvotalar orqali eksport va import tartibga solinadi. Mamlakatning chet ellardan olgan qarzining me'yorida bo'lishi — xalqaro kredit faoliyat ko'rsatadigan sharoitlarda davlatning chet mamlakatlardan qarz olishi yoki qarz berishi muqarrar hodisa, ammo chetdan olingan qarzning me'yordan oshib ketishi moliyaviy qaramlikni paydo etadi.



Bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun qarzдорlik me‘yori nazorat qilinadi. Bu me‘yorni aniqlashda qarz miqdori mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YIM) va eksport hajmi bilan taqqoslanadi. Odatda, qarz miqdori YIMning 50% dan ortmasligi talab kilinadi, ayni paytda qarzni eksportdan tushgan valyuta hisobidan qoplash imkoni ham bo‘lishi e‘tiborga olinadi.

Iqtisodiy mustaqillik mutloq emas, balki nisbiydir. Global sharoitlar o‘zgarishi bilan iqtisodiy mustaqillik mezonlari va ko‘rsatkichlari o‘zgaradi, chunki mamlakat iqtisodiyotiga tashqi sharoitlarning ta‘siri kuchayadi. Iqtisodiy mustaqillik ko‘rsatkichlari mamlakatlarning integratsiyalashuv darajasiga nisbatan teskari mutanosiblikka ega. Mamlakatlar qanchalik chuqur iqtisodiy integratsiyalashgan bo‘lsa, milliylikdan globallik (umumiylik) tomon rivojlanish shunchalik jadallashganligidan darak beradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlashimiz mumkunki, vatanimiz mustaqikka erishgan juda katta o‘zgarishlar, islohotlar amalga oshirildi, sport sohasiga ham juda katta etibor qaratildi. Bu bejiz emasdi chunki, hech bir mamlakatni sport va san‘atchalik hech nima mashhur eta olmaydi. Mamlakatimiz rahbari tomonidan ayollar sportini ham rivojlantirishga ham katta etibor qaratildi. Ayollarga yaratilgan shart sharoitlar yanada oshirildi. Iqtisodiyotimizdagi o‘sishga to‘xtaladigan bo‘lsak, davlatlar guruhlarini bo‘yicha tashqi savdoning eng katta hajmi MDH mamlakatlariga to‘g‘ri keladi-19,2 mlrd dollar, boshqa mamlakatlar bilan savdo aylanmasi 30,8 mlrd dollarni, shu jumladan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan-4,5 mlrd dollarni tashkil etdi (2022-yil yanvar-dekabr oylaridagi ma‘lumot). 2022-yil savdo hajmi 17,2 mlrd dollarni tashkil etgan bo‘lsa, shuning 10,1 mlrd dollar qismi ya‘ni 59% i importga, 7,1 mlrd ya‘ni 41% i eksportga to‘g‘ri keladi. Shu yilning dekabr-yanvar oyiga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi \$50,0 mlrd ga yetib, 2021 -yilning shu davriga nisbatan \$7,8 mlrd ga yoki 18,6% ga oshdi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. „Mikroiqtisodiyot“. B.T. Salimov, M.S. Yusupov., „Innovatsion rivojlanish“. 2021.
2. „O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida“ .Islom Karimov „O‘zbekiston NMIU“ .2016.
3. www.mineconomy.uz
4. www.stat.uz

